

FARMASEFTIKADA ALOE SUVI ISHTIROKIDA HOZIRDA YANGI PREPARATLAR ISHLAB CHIQRISH

Egamberdiyeva Marjona Xusniddin qizi

Toshkent kimyo texnologiya instituti SHahrisabz filiali o`qituvchisi


Odilova Muxlisa Xusniddin qizi

3 kurs talabasi Toshkent kimyo texnologiya instituti SHahrisabz filiali

Annotatsiya: Ushbu maqola aloe haqida qiziqarli ma'lumotlar va hozirgi kunda aloe o'simligining farmatseftikada yangi preparatlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish haqida ba'yon etilgan. Aloe haqida qisqacha yoritilgan.

Kalit so'zlar: immunitet, biogen stimulator, bakteresid xususiyati, diabet xastaligi, ko'z kasalliklari, ginekologik kasalliklar, metabolitik jarayonlar, komponentlar.

Ma'lumki, aloe o'simligi juda ham foydali o'simlik hisoblanadi. Organizmda kechadigan turli xil kasalliklarni oldini olishda samarali vositadir. Lekin, ko'pchilik ushbu o'simlikni oddiy xona o'simligi sifatida qaraydi. Aslida esa, aloening meditsenadagi xususiyatlari juda ham katta. Aloe o'simligi haqida bir qancha qiziqarli ma'lumotlar berib o'tishga harakat qilaman. Aloe suvi yoki shirasi ichak tutilishini, va bir qancha yuqumli kasalliklarda, jumladan yallig'lanish, diabet va yuqori qon bosimini nazorat ostida ushlabda ishlatiladi. Aloe suvi immunitet tizimini kuchaytiradi, hamda yuqori nafas yo'llari shamollash kasalliklarini oldini oladi. Teri va soch sifatini yaxshilaydi. Tibbiyotda qo'llash uchun aloening yangi yig'ilgan bargidan shira olinadi va spirt bilan konservalanadi. Shira bakteresid xususiyatiga ega bo'lib, kuygan joyni, yuqumli va boshqa yaralarni hamda me'da va ichakning ba'zi kasalliklari (kolit, gastrit va boshqalarni) davolashda ishlatiladi. Aloening suvli ekstrakti immunostimullovchi xususiyatga ega bo'lib, organizmni turli kasalliklardan himoya qiladi. Shuningdek, biogen stimulyatorlarga boy aloe barglaridan kanakunjut yog'i hamda ekvalipt efir moyi qo'shib, aloe emulsiyasi tayyorlanadi. Ushbu preparatlar organizmning kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi. Shuning uchun aloe bargidan tayyorlangan stimulyatorli suyuq ekstrakt ko'z kasalliklari ([konyunktivit](#), ko'z shishasimon tanachasining xiralashishi va boshqalar) ni surunkali [artrit](#), oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasini ham davolashda keng qo'llaniladi.[1]



1-rasm. Aloe o'simligining tuzilishi.

Mediklar tili bilan aytganda aloe tibbiyot mo'jizasi. Mamlakatimizda aloening bir qancha turlari mavjud. Aloening asl vatani Afrika.180 dan ortiq turi aniqlangan. Aloening etli barglari biogen stimulatorga boy o'simlik hisoblanadi. Ya'ni Aloe bargi tarkibida sof va birikkan holda antratsen hosilalari borligini kimyoviy jihatdan ma'lum qiladi. [2],[3]

Agar insonning biror a'zosi yallig'lansa o'sha yiring yoki yara ustiga aloening etli qavatini bog'lab qo'ysak ,ya'ni buni uy sharoitida qo'llasak juda ham yaxshi samara beradi. Samaraliligi o'sha yiringni o'ziga birtirib, tortib oladi. Ushbu amaliyotni o'zimda ko'p bora qo'llaganman.

Aloe shirasi tarkibida bakteresid xususiyati mavjud bo'lib yiringga tushgan bakteriyalarni nobud qiladi. SHuningdek, ko'z kasalliklarida shishasimon tananing xiralashuvining oldini olishda qo'llaniladi. Aloening etli barglaridan olingan suvi ginekologiyada: ichki shamollashlarda, bachadon shamollashlarda, va ko'plab gnekologik kasalliklarda medetsenada beqiyos o'rin tutadi. Biroz, achchiq, nordon ta'mga ega bo'lgan o'simlik. Kasmetikada aloening turli xil gelli eritmalari, kremlaridan foydalaniladi. Sababi terida hech qanaqa dog'li asoratlar hosil qilmaydi. Aloe shirasi tarkibida makro va mikro elementlar aminokislotalar, bir qancha komponentlar va vitaminlar bo'ladi.[4]

Inson organizmida metabolitik jarayonlarda ishtirok etadigan 22 ta aminokislotalardan 20 tasi aloe tarkibida mavjud. Elementlardan mg, Ca, K, va b elementlar bor. SHuni ham aytib o'tish kerakki, aloe shirasi tarkibida gialuron kislotasi bor .SHuning uchun qon tomirlarga shilliq pardalarga juda ham chuqur kirib boradi.Nojuya ta'sirlari juda ham kam.Og'ir turdagi xastaliklar; oshqozon ichak kasalliklarining o'tkir turida, jigar kasalliklarida qo'llash mumkin emas. CHet elda aloe o'simligiga va undan olinadigan preparatlarga bo'lgan talab bizaga nisbatan ancha yuqori. Hozirda bir qancha olimlar shu ish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishmoqda.

Nigeriyalik olimlar guruhi kalamushlar ustida tadqiqot o'tkazdi va aloe vera o'simligidan tayyorlangan gel ich qotib qolishdan xalos bo'lishi mumkinligini aniqladi. Ammo Milliy Sog'liqni Saqlash Instituti tomonidan olib borilgan yana bir tadqiqotda aloe vera to'liq bargli ekstrakti iste'mol qilinishi ko'rib chiqildi. Ushbu topilmalar laboratoriya kalamushlarining yo'g'on ichaklarida o'sma o'sishini aniqladi. 2002 yilda AQSh oziq-ovqat va farmatsevtika idorasi retseptsiz sotiladigan barcha aloe laksatif mahsulotlarini AQSh bozoridan olib tashlashni yoki qayta shakllantirilishini talab qildi. Mayo Clinic aloe vera ich qotishidan xalos bo'lish uchun ishlatilishini tavsiya qiladi, lekin juda kam. Ular 0,04 dan 0,17 grammgacha quritilgan sharbatning dozasi etarli ekanligini maslahat berishadi. Agar sizda Kron kasalligi, kolit yoki gemorroy bo'lsa, aloe vera iste'mol qilmasligingiz kerak. Bu kuchli qorin kramplari va diareyaga olib kelishi mumkin. Agar siz boshqa dori-darmonlarni qabul qilsangiz, aloe vera qabul qilishni to'xtatishingiz kerak. Bu sizning tanangizning dorilarni qabul qilish qobiliyatini kamaytirishi mumkin.[6]

Fikrimcha, ushbu metodni amalda ko'roq qo'llasak, samarali yutuqlarga erishishimiz mumkin bo'ladi. Jumladan, hozirda yangidan yangi turli xil paydo bo'layotgan kasalliklarni oldini olishda ushbu o'simlikdan olingan preparatlar bevosita xizmat qiladi. Chunki ko'pgina kasalliklarni asosi immunitet tizimini pasayishi sababli kelib chiqadi. Nafaqat aloe, namatak, va boshqa dorivor o'simliklardan zamonaviy texnologiyalar asosida yangi turdagi preparatlar olinsa, yana bir ilmiy izlanishga qo'l urgan bo'lamiz. Aloening bizga ma'lum va nomalum bo'lgan moddalarni ko'rishimiz, o'rganishimiz hamda ulardan tibbiyotda xalqimiz salomatligi uchun foydalanishimiz mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://avitsenna.uz>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Aloe>
3. [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
4. M.A. Jo'rayeva „Dorivor o'simliklar atlası“(o'quv qo'llanma)-Toshkent Nashriyoti-2019.
5. Акопов И.Э. Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применение.-Т.: Медицина, 1990. -440с
6. <https://www.healthline.com>